Направления обеспечения конкурентоспособности во внешнеэкономических связях.....	1005
Ахмедов Икром Акрамович	
O'zbekistonda natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish mexanizmini rivojlantirish.....	1019
Primova Nigora Ikrom qizi	
Kichik biznes korxonalarida B2B bozorini tizimli tashkil etishning uslubiy jihatlari.....	1026
Zakirova Gulnoza Qudratovna	
Current Trends in Agrotourism in Uzbekistan: Demand, Needs, and Motives of Agritourists	1030
Iroda Abdieva Gayrat kizi	
Современное состояние достойного труда специалистов транспорта в условиях цифровизации.....	1035
Абдуллаева Нигора Шамсиддиновна	
Обоснование методов оценки совершенствования конкурентоспособности предприятий легкой промышленности	1039
Тухтасинова Мухайё Мирзасултоновна	
Проблемные аспекты трансформации финансовой отчетности бизнеса юридических лиц	1045
Шин Инесса Олеговна	
Cross-Cultural Management is a Separate Field of Science and Discipline.....	1051
Umarova Zulaykho, Rakhmanova Zilola	
Tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish tahlili.....	1054
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni	1058
Jo'rayev Ilhomjon Kamolidinovich	
Iqtisodiy inqiroz davrida kredit xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy modellari....	1062
Kurbonov Rustam Radjabovich	
Raqamli transformatsiya konsepsiyalari va uning ahamiyati.....	1067
Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari.....	1074
Xalilova Shoxsanam G'ayrat qizi	
"EIZ" hududida soliq va bojxona rejimlari uchun imtiyozlarni tahlil qilish	1079
Xusanov Durbek Nishonovich, Djurayeva Iroda Bahrom qizi	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalashtirish istiqbollari.....	1083
Aliqulov Mehmonali Salahiddin o'g'li	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda sun'iy texnologiyalarning o'rni	1088
Xonova Nodira Fazliddinovna	
O'zbekistonning investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish yo'llari.....	1093
Sotimov Yunusbek Turg'unboy o'g'li	
"Yashil" sanoat siyosatini yuritish zaruriyati: bozor nuqsonlaridan milliy xavfsizlikkacha.....	1198
Muqimov Sherali Axmadali o'g'li	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatining hozirgi holati tahlili va rivojlantirish istiqbollari.....	1103
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
Improving the Methodology of Econometric Analysis of the Efficiency of Financial Activity of Agricultural Agroclusters of Uzbekistan.....	1108
Ochilov Ilhom Sayitkulovich	




O'zbekistonda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va "Uglerod neytralligiga erishish" strategiyalarining ahamiyati	1116
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li, Bazarov Shodi Abdirahmonovich	
Oziq-ovqat mahsulotlari brend qiymatini oshirishda marketing strategiyalari.....	1123
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системы Республики Узбекистан	1129
Рузибоева Нилуфар Тулкин кизи	
Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun mintaqaviy siyosat vositalarining xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1135
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mintaqa korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion marketingning o'rni va mohiyati.....	1142
Axmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tokomillashtirish yo'llari.....	1146
Samandarova Dilfuza Mansurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlarini mavjud muammolar va yechimlar.....	1153
Fatilloev Farrux Farhod o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlili.....	1158
Zakirova Umida Maxamadamminovna	
Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo'llari ("Agrobank" ATB misolida).....	1167
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1172
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi va xorijda tog' turizmini rivojlantirish omillarini qiyosiy baholash	1177
Mavlanov G'olibjon Muxammad o'g'li	
Improving The Effective Use Of Local Taxes And Levies In Tashkent City	1182
Shahzad Zokhidov	
Совершенствование методологии механизмов налогообложения ресурсного налога	1186
Мухиддинов Талат Шайдулло угли	
Tadbirkorlik faoliyatida investitsiya muhitining xususiyatlari va chet el kapitalining jozibadorligi.....	1189
I. M. Kamoliddinov, To'khtasnov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish xususiyatlari.....	1194
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
Inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish.....	1199
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1203
Ahrorov Farhod Baxriddinovich	
Korxonalarda uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda strategik boshqarishda mintaqaviy klaster modellashtirishdan foydalanish	1208
Muhitdinov Asror Akobirovich	
Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari	1213
Djumayev Zayniddin Axmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari	1219
Tursunov Nozimjon Nosirovich	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
Saida Yuldasheva	



KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SOLIQLAR VA SOLIQ SIYOSATINING AHAMIYATI

Saida Yuldasheva

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti



Annotatsiya: Mazkur maqolada korxonlar faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirishda soliqlar hamda soliq siyosatining ahamiyati tadqiq etilgan. Zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali korxonalar faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, soliq siyosatini takomillashtirishning ayrim yo'nalishlari bo'yicha ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: soliqlar, soliqqa tortish, soliq siyosati, soliq ma'murchiligi, korxona, samaradorlik.

Abstract: This article examines the importance of taxes and taxation in the organization of business activities and improving their efficiency. The directions for the development of enterprises by introducing modern tax administration were analyzed. Also, a scientific conclusion and practical recommendations on some areas of tax administration improvement are presented.

Key words: taxes, taxation, tax administration, enterprise, efficiency.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение налогов и налогообложения в организации предпринимательской деятельности и повышении ее эффективности. Проанализированы направления развития предприятий путем внедрения современного налогового администрирования. Также представлены научный вывод и практические рекомендации по некоторым направлениям совершенствования налогового администрирования.

Ключевые слова: предпринимательство, семейный бизнес, ресурсная мотивация, бихевиоризм, экстраверсия.

KIRISH

Soliqlar davlat paydo bo'lgan paytdan boshlab jamiyatlardagi iqtisodiy munosabatlarning zaruriy bo'g'ini bo'lib kelmoqda. Davlat tuzilishi shakllarining rivojlanishi va o'zgarishi har doim soliq tizimining ham o'zgarishi bilan birga amalga oshadi. Soliqlar davlat daromadlarining asosiy shakli hisoblanib, bozor sharoitida iqtisodiyotni boshqarishning kuchli vositasidir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda soliq yukini kamaytirish, tadbirkorlik subyektlariga qulay raqobat muhitini yaratish, zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish hamda sohani raqamlashtirish orqali takomillashtirish, adolatli soliq tizimini tashkil etish va soliq tushumlari barqarorligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan soliq islohotlari o'zining ijobiy samarasini namoyon etmoqda. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining qabul qilinishi, soliqlar turlarining kamaytirilganligi, mehnatga haq to'lash fondiga soliq yuki keskin kamaytirilganligi, qo'shilgan qiymat solig'i barcha uchun tatbiq etilganligi, shuningdek, soliq stavkalarining pasaytirilishi hamda soliq nazoratida "inson omili"ning kamaytirilganligi, yirik soliq to'lovchilar bilan ishlashning alohida tizimi joriy etilganligi ayni yaqqol dalildir.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "So'nggi yillarda mamlakatimiz soliq ma'muriyatchiligi tubdan isloh qilinmoqda. 2019-yil dekabrda yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilinib, to'g'ridan-to'g'ri qo'llanuvchi normalar joriy etildi. Soliqlar soni 13 tadan 9 taga kamaytirildi. Mulk solig'i stavkasi 5 foizdan 1,5 foizga, qo'shilgan qiymat solig'i 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Ish haqiga nisbatan soliq yuki qariyb 2 baravar kamaytirildi. Bularning natijasida tadbirkorlarning islohotlarga ishonchi ortib, soliq tushumlari 4 baravar ko'paydi. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar soni 6 mingdan 152 mingtaga yetdi"¹.

Bugungi zamonaviy sharoitlarda O'zbekistonda yangi mazmundagi strategik maqsadlarni belgilab beruvchi soliq siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirib borish, adolatli soliq tamoyillariga asoslangan soliq tizimini yanada rivojlantirib borish yo'nalishida sezilarli islohotlar amalga oshirish bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

1 <https://president.uz/oz/lists/view/5060>



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jamiyatning iqtisodiy tizimining elementi sifatida soliqqa tortish bozor va bozor bo'lmagan boshqaruv turidagi barcha davlat tizimlariga xosdir. Soliqlarni yig'ish jarayoni davlat tomonidan amalga oshiriladi va bundan tashqari, bu uning vazifasidir. "Soliq" tushunchasi "davlat" toifasi bilan chambarchas bog'liq. Bu davlatning rivojlanish darajasiga, uning iqtisodiyotining holatiga (asosiga) va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga bog'liq. Soliq tizimi bilan tanishish davlat rivojlanishning qaysi bosqichida ekanligini aniqlash uchun yetarli.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida "soliq" tushunchasining rivojlanishi bilan bir qatorda davlat to'g'risidagi nazariy qarashlar, uning faoliyatining asosiy maqsadlari, mavjudlik shakllari va jamiyatni boshqarish usullari ham shakllandi. Soliqlar iqtisodiy munosabatlarning zaruriy bo'g'inidir, shuning uchun o'tmishdagi barcha iqtisodiy nazariyalarda soliq siyosati, soliqlarning davlat iqtisodiyotidagi o'рни va soliq tizimini qurish variantlari ko'rib chiqiladi.

L. M. Shablita soliq siyosatini "davlatning soliqlarni belgilash va undirish sohasidagi faoliyati" ^[3] deb ta'riflaydi. Ko'plab moliyaviy-iqtisodiy lug'atlarda esa bu tushuncha "... yuridik, jismoniy shaxslarga soliq solishning davlat siyosati. Uning maqsadi davlat budjetini shakllantirish va bir vaqtning o'zida korxonalarining ishbilarmonlik faoliyatini rag'batlantirishdir".

A. Sokolovskayaning ta'kidlashicha, "zamonaviy soliq siyosati soliq tizimining elementlarini (soliqlar, stavkalar, soliq tizimining tuzilishi, subyektlar, soliq solish obyektlari, soliq bazasi, imtiyozlar va boshqalar) davlat tomonidan unga yuklangan funksiyalarni bajarish va rag'batlantirish uchun budjetga yetarli bo'lgan tushumlarni ta'minlash uchun belgilaydigan vosita" ^[4].

L. A. Zazvonova va F. Fomin soliq siyosatini "davlat tomonidan soliqlar sohasida amalga oshiriladigan va jamiyat oldida turgan muayyan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlar tizimi shaklida" ^[5] belgilaydi deya qayd etishgan. O. D. Vasilik davlatning soliq siyosati tushunchasini "soliq tizimini qurish va soliqlarni budjetga safarbar qilish sohasidagi davlat harakatlarining yig'indisi" deb ta'riflaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro amaliyotdan ma'lum bo'lishicha davlat budjeti va soliq to'lovchilarning manfaatlari nuqtayi nazaridan to'g'ri va samarali soliq siyosati strategiyasi ishlab chiqish davlatning fiskal-budjet siyosatining samarasini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida alohida ahamiyat berib kelinmoqda. "Xalqaro valyuta jamg'ar-masining hisob-kitoblariga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida soliqlardan tushumlar YalMning 15-25 foizini, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda ushbu ko'rsatkich 40 foizni tashkil etadi. Ushbu tashkilotning tavsiyalariga ko'ra, ayrim daromadi past hamda bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarda oxirgi yigirma yillar oralig'ida soliq siyosatida islohotlar amalga oshirilishi natijasida soliq tushumlarining keskin o'sishi kuzatilganligi ham samarali soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish muhimligini ko'rsatmoqda"².

Shunga ko'ra, jahon miqyosida soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda. Hozirda jahonda soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Soliq siyosati strategiyasi orqali iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish, soliq tizimida daromadlarni oshirish qobiliyatini oshirish hamda davlat xarajatlarining barqarorligini ta'minlash, rivojlanayotgan davlatlarning fiskal siyosatini kuchaytirish, adolatli va inklyuziv soliq tizimini joriy etish, soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishda raqamli platformalardan samarali foydalanish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Bugungi zamonaviy sharoitlarda O'zbekistonda yangi mazmundagi strategik maqsadlarni belgilab beruvchi soliq siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirib borish, adolatli soliq tamoyillariga asoslangan soliq tizimini yanada rivojlantirib borish yo'nalishida sezilarli islohotlar amalga oshirish bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Soliq siyosati strategiyasi davlat iqtisodiy siyosatining mazmunidan kelib chiqib, doimiy va o'zgaruvchan strategiyaga ega bo'ladi. Soliq siyosati strategiyasining o'zgarib turilishiga albatta davlatning iqtisodiy siyosati bilan birgalikda boshqa omillar ham ta'sir qiladi.

Bizningcha, soliq siyosatining mohiyatini anglashda uni tor va keng ma'noda tushunish mumkin. Tor ma'noda soliq siyosati deganda – Davlat va mulk (daromad) egasi o'rtasidagi soliq munosabatlarini tartibga solish tushuniladi. Soliq siyosati keng ma'noda esa – milliy daromad shakllanishi, o'sishini rag'batlantirish va qayta taqsimlashga xizmat qiladigan iqtisodiyotda teng raqobat sharoitini yaratishga qaratilgan soliqlarni joriy etish hamda undirish mexanizmlarini qamrab olgan davlat boshqaruv instituti tushuniladi.

2 <https://www.imf.org/en/Publications/fandd/issues/2018/03/akitoby>




Soliq siyosatining taktikasi deganda esa soliq siyosati va uning strategiyasida maqsad qilib belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida o'zaro bog'liq holda qo'llaniladigan usul va vositalarning yig'indisidir. Sodda qilib aytganda soliq siyosati strategiyasida belgilab qo'yilgan maqsadga oson va qulay erishishning yo'llaridir.

Soliq siyosatining bosh (doimiy) strategiyasi – davlat budjeti va soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'zaro manfaatlarining uyg'unlashuvi va muvozanatlashuvini ta'minlashdan iborat bo'lsa, soliq siyosatining o'zgaruvchan soliq strategiyasi budjet daromadlarining bir maromda shakllanishi, teng raqobat sharoitini yaratish soliq to'lovchilarning soliq madaniyatini oshirishga erishish hamda soliqlarning rag'batlantirish ta'sirini yanada oshirishdan iboratdir.

Shuningdek, soliq siyosati barqarorligini ta'minlashda uning strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozim. Amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar xususiyati va muddatini e'tiborga olib soliq siyosati: soliq siyosati strategiyasi va soliq siyosati taktikasiga bo'linadi. Soliq siyosatining amalga oshirish muddatiga ko'ra tasnifini 1-rasm orqali ifodalash mumkin.

Soliq siyosati strategiyasida muayyan uzoqroq muddatga mo'ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlari ifodalanadi. Bu esa o'z navbatida ilmiy asoslangan soliq konsepsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, respublikamizda jamiyat taraqqiyotining asosiy strategiyasi qilib, ochiq bozor iqtisodiyotiga, yerkin fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy, demokratik jamiyat qurish belgilangan. Soliq borasidagi ustuvor strategik vazifa esa davlat byudjeti va xo'jalik yurituvchi subyektlarni soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarida muayyan uyg'unlikni ta'minlovchi soliq tizimini shakllantirish va shunga mos ravishda takomillashtirib borishdan iboratdir. Yoki boshqacha qilib aytganda, soliq siyosati strategiyasi – soliq siyosatining uzoq muddatli yo'nalishi bo'lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan ulkan masshtabli vazifalarni kelajakda bajarilishini ta'minlash ko'zda tutilgan soliqqa doir moliyaviy tadbirlar yig'indisidir.




1-rasm: Soliq siyosati tasnifi

Shunday qilib, soliq siyosatining ikkita o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- budjetga zarur tushumlarni ta'minlash;
- iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

Soliq siyosatining vazifalari davlatni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, umuman mamlakat iqtisodiyotini tartibga solish uchun sharoit yaratish, bozor munosabatlari jarayonida yuzaga keladigan aholi daromadlari darajasidagi tengsizlikni yumshatishdan iborat. Soliq siyosatining barcha vazifalarini shartli ravishda uchta asosiy guruhga bo'lish mumkin.



2-rasm: Soliq siyosati vazifalari

Hozirgi bosqichda davlat soliq siyosatining asosiy vazifalaridan biri xo'jalik yurituvchi subyektlarning faol moliyaviy-xo'jalik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va shaxsiy va jamoat manfaatlarining optimal



uyg'unligiga, ya'ni soliqlar o'rtasidagi optimal nisbatga erishish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdan iborat. Soliq siyosati tarkibiy jihatdan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va soliqsiz to'lovlarni qonuniy joriy etish;
- amal qilayotgan soliqlarni samarali ishlashini ta'minlovchi mexanizm shakllantirish va takomillashtirish, soliqqa oid qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;
- soliq siyosatini amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlarni tashkil etish va ularni ushbu sohadagi vazifalarini belgilash;
- soliqqa tortish tizimini shakllantirishga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotni amalga oshirish va ularni joriy etishni tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining strategiyasini amalga oshirilishi natijasida bir qator ijobiy natijalarga erishilishiga asos bo'ldi. Respublikada adolatli, shaffof, uzoqqa mo'ljallangan va xalqaro andozalarga javob bera oladigan soliq tizimini yaratishga qaratilgan soliq islohotlari iqtisodiy, huquqiy jihatdan har tomonlama asoslangan hamda soliq to'lovchilar uchun qulay va manfaatli ekanligini ko'rsatmoqda. Birinchi navbatda, tadbirkorlik subyektlari va investorlar faoliyatini soliq sohasida kafolatlashning huquqiy asosi yaratilib, yangi Soliq konsepsiyasi, Soliq kodeksi va 150 dan ortiq qonun, Farmon, qaror va boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Teng raqobat sharoitini yaratish maqsadida 80 dan ortiq turli soliq imtiyozlari bekor qilindi. Individual imtiyozlar berish amaliyotidan voz kechildi. Soliq yukini keskin pasaytirish maqsadida Soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi. Davlat soliq siyosatining samaradorligi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va jarayonlarni ularga soliq siyosatining ta'siri nuqtayi nazaridan o'rganish uchun maxsus yaratilgan matematika, mantiq va statistika apparatlariga asoslangan iqtisodiy va matematik usullar yordamida baholanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bilamizki soliq ma'murchiligini rivojlantirish orqali soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish imkoniyati yaratilib, budget soliq siyosatini amaliyotga tadbqiq etish shart sharoitlari yaratiladi hamda budgetga samarali soliq yig'implari shakllanishiga olib keladi. Shuningdek bugungi kunda ko'pgina rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar soliq ma'murchiligiga katta e'tibor qaratayotgani sir emas. Sababi davlat byudjeti daromadlarini shakllanishida soliqlarning ahamiyati katta bo'lib +xuddi shu soliqlarning to'liq yig'ilishida hamda o'z vaqtida davlat budgetiga kelib tushishi uchun ham soliq ma'murchiligini rivojlantirish asosiy omillardan biridir.

Bizning fikrimizcha, nafaqat barcha mamlakatlarda, jumladan, respublikamiz soliq tizimida davlatning soliq siyosatining ishlab chiqilishi va uni amalga oshirish jarayonlarini baholash uning keyingi bosqichlarini to'g'ri belgilab olishga imkon berish bilan birgalikda, umumiy tarzda milliy iqtisodiyot darajasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning samarasini baholashga ham xizmat qiladi.

Xorij mamlakatlari misolida o'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakat kelajakda nimaga intilishi zarurligi va nimadan ehtiyot bo'lishi kerakligini tushunib olish mumkin. Keng ma'noda, kelajakda soliq islohoti o'tish davrida quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- jismoniy shaxslar daromadiga nisbatan soddalashtirilgan tuzilishga ega bo'lgan keng masshtabli daromad solig'ini joriy etish;
- e'tiborni korxonalar foyda solig'idan fuqarolarning daromad solig'iga qaratish;
- korxonalar foyda solig'i va fuqarolarning daromad solig'ini yagona soliqqa integratsiyalashtirish;
- keng bazali qo'shilgan qiymat solig'ini va tovarlarning alohida turlariga aksizlarni qo'llash va boshqalar.

Zero, Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoni.
2. Савченко Н.Б. Совершенствование механизма налогообложения предпринимательской деятельности физических лиц – наймодателей. Автореферат на соискание ученой степени к.э.н. – М.: 2011. – 27 с.
3. Шабліста Л. М. Податкова політика у трансформаційний період // Актуальні проблеми економіки. – 2001. – № 3-4. – С. 26.
4. Соколовська А. М. Податкова система України: теорія та практика становлення / А. М. Соколовська, Г. Л. Вознюк, Т. С. Смовженко. – К.: НДФІ, 2001. – 372 с.
5. Зазвонова Л. А. Налоги и налогообложение: Учеб. пособ. / Л. А. Зазвонова, Ф. Ф. Фомин. – К.: Изд-во Европ. ун-та, 2003. – 265 с.
6. Niyazmetov I.M. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlash. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2018, 247 b.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.